

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIĞI**

2023 - yil 14 - iyun

117-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 73-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023-yil 23-maydagi 6/1161-1-sonli topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ko'zi ojizlar jamiyati Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 23-maydagi 96-sonli xati, hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 7-iyundagi SM/05-02/2124-sonli xulosasini inobatga olib:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (M.Sodiqov) O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati Qoraqalpog'iston bo'limiga a'zo bo'lgan yosh oilalar o'rtasida "Yangi O'zbekistonning namunali oilalari" nomli ko'rik tanlovi qatnashchilarini rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan 1 875 000 so'm (*bir million sakkiz yuz etmish besh ming*) so'm mablag'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratish choralarini ko'rsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasi (A.Ismailov) O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati Qoraqalpog'iston bo'limi bilan birgalikda ajratilgan mablag'ning qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarda va tartibda, maqsadga muvofiq sarflanishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyaviy nazorati Bosh boshqarmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat moliyaviy nazorati boshqarmasidan (B.Utambetov) yuqorida ko'rsatilgan ishlarga ajratilgan mablag'larning qonunchilikda o'rnatilgan asoslarda va tartibda, maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish so'ralsin.

4. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari R.Nurazizov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov